

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI  
LOYIHALASHTIRISH**

**Olimova Nilufar Baxtiyorovna**

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 4 -umumta'lim maktab  
musiqa fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolamizda musiqa madaniyati darslariga pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va darsni samarali tashkil etish bo'yicha so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, loyixa, texnik vositalar, interfaol usullar, texnologik trening.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы проектирования педагогических технологий на уроках музыкальной культуры и эффективной организации урока.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, проект, технические средства, интерактивные методы, технологический тренинг.

**Abstract:** This article deals with the design of pedagogical technologies for the lessons of music culture and the effective organization of the lesson.

**Keywords:** Pedagogical technology, project, technical means, interactive methods, technological training.

## **KIRISH**

Ta'limdi texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chek pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limdi texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limdi "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan edi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 1950-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rildi. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmuali texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi. Hozirgi vaqtida «pedagogik texnologiya» ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqishni aniq maqsad qilib olganligidadir.

## **ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODOLOGIYA**

Musiqa darslarida aksariyat o`quvchilar o`qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o`qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o`rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo`lmaydi.

Ma'lumki, musiqa o`qituvchisi o`quv tarbiya ishlarini baravariga olib boradi. O`quvchilarni musiqa san'ati orqali tarbiyalashda o`qituvchining yaxshi sozandalik mahorati, yaxshi ovozga ega bo`lishi nota o`qish, turli vositalardan oqilona va o`rinli foydalana olishi, so`z mahorati, o`quvchilarni qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. Jonli ijro (cholg'u asboblarda chalish, qo'shiq kuylash) etilgan kuy- qo'shiq sinfda o`quvchilarga o`zgacha ruhda ta'sir etadi, kayfiyatlarini ko'taradi. Musiqa o`qituvchisi bularidan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o`qituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholashga, o`quvchilarni ichki tuyg'u, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga o'rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan - yettinchi sinfga qadar davom etadi.

Bunda qo'llanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik bolalar uchun qiziqarli va o'ng'aylik jihatlari aniqlanib boriladi. Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatları, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiyligi ijodiy – ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, Musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati 21 Metodik tavsiya ularni musiqa mashg'ulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda.

Bunday darslar o`quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor o`qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin: konsert darslar; viktorina darslari; intervyyu darslari; konkurs darslari; yo'naltiruvchi darslari; doira stol atrofidagi darslari; o'z – o'zini anglash darslari; o'yla – izla top; kuyni top; himoya darslari; quvnoqlar va zukkolar darslari; bahs – munozara darslari; men dirijyor darslari; musobaqa darslari va h.k.

Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Masalan, konsert darslarini o`quvchilarda sahna madaniyatini shakllanishiga, o`zlarini ko`pchilik oldida ko'rsatish, yaxshi imkoniyatlarini namoyish etish, o`zini artistlardekkutish xislatlarini o'sishiga, viktorina darslari o`quvchilarda topqirlilik, izlanuvchanlik, tez fikrlash, eslab qolish qobiliyat va ko`nikmalarini rivojlanishiga, bahs – munozara darslari ham o`quvchilarni mustaqil fikrlash, hozirjavoblik, mavzu va masalalarga ijobiy yondoshish, nutqlarini teranlashib borishiga ijobiy ta'sir etadi. Quvnoqlar va zukkolar darsida o`quvchilar o`zlarining topqirlilik, zukkolik, xushyorlik, maqsad sari intilish kabi sifatlarini namoyish etadilar. Tahlil darsida musiqa savodi, musiqa

tinglash, qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukkammal tahlil qilishga e'tibor qaratiladi, bunda o'quvchilarni nazariy savodxonlik malakalari muhim rol o'ynaydi. O'yin darslari juda xilma – xil shakllarda o'tkazilishi mumkin. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusini o'tganda o'quvchilarga turli xildagi musiqa cholg'u asboblari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitafon yordamida biror bir milliy cholg'u asbobida ijro etilgan musiqani eshittiradi. Oquvchilar o'z navbatida musiqiy asar qanday cholg'u asbobida ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Eng faol qatnashgan va topqir o'quvchilar baholanadilar va Musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati 23 Metodik tavsiya rag'batlantiriladilar. Viktorina, konsert, babs – munozara, kuyni top kabi darslar o'quvchilarning nazariy va amaliy o'zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda o'tkaziladi. Dars – sayohat esa ijodiy jamoalarga, turli madaniy – ma'rifiy tadbirlarga yoki bo'lmasa video tasma yordamida tabiat qo'yniga, shaharlarga musiqiy sayohat tarzida uyuştiriladi.

Maqolamizni maqsadi ham o'quvchilarini musiqiy ta'lim sifatlarini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik yo'llarini ishlab mashg'ulotlarga joriy etishdir. O'quvchi yoshlarda musiqiy mashg'ulotlar orqali pedagogik texnologiyalarni qo'llashni shakllantirishni nazariy asoslarini, so'ngra ularni amaliy yo'l – yo'riqlarini o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun ham umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida ba'zi bir loyixalashtirilishi shart bo'lgan pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishini ko'rib chiqsak:

1. Musiqa madaniyati darslarida, o'quvchilarini musiqiy tafakkurini tarbiyalashda, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmunmohiyatini o'rganib chiqish;
2. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarini ma'naviy jihatdan tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash;
3. O'sib kelayotgan o'quvchilarini musiqa sifatlarini tarbiyalash jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl, metod va vositalarini belgilash, ularning samaradorligini aniqlash hamda tavsiyalar berish;

Ushbu loyixa asosida ish yuritsa, musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarini musiqiy ta'lim sifatlarini tarbiyalash, pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarga bilim berishda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ularni o'quv jarayoniga loyixalashtirish mexanizmlari ochib berilmoqda. Respublikamiz maktablarida har bir o'quvchining musiqiy – hissiy qabuli va emosional idroki masalasi bosh masala qilib qo'yilgan. Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslari, «Musiqa fani» darsliklar hamda o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari ham ishlab chiqilgan. Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy

texnologiyalar zarur. Lekin ta’limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lgan o’qituvchi bajara olishi mumkin. Chunki, musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar orqali ma’naviy tarbiyalash jarayoni dars mashg’ulotlari orqali amalga oshadi. Ular o’z ifodasini an’anaviy va noan’anaviy o’qitish uchun majmuali texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya o’qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo’llash, shuningdek qo’llanilayotgan usullarni baholash yo’li orqali ta’lim jarayonining asoslari va uni maqbullahtirish yo’llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadiga qaratilgandir. Barcha ta’lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo’liga o’tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishini anglatadi.

O’qituvchi o’quvchilarni ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g’urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta’minlashi zarur. Ma’lumki, «Pedagogika» ta’lim – tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini va uning qonuniyatlarini ochib berishi hamda shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta’sir etishini nazarda tutadi. Bu albatta ko’pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Ilg’or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o’qituvchilarning faoliyatları ham o’rganib boriladi. Texnologik loyixalash tajribalarni o’rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o’quvchilarning yozma va og’zaki hamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o’rganish metodlaridan unumli foydalaniladi. Pedagog-o’quvchi darsning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnolgiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o’quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo’lar, bular o’qituvchi va o’quvchiga bog’liq. O’qituvchi o’qitish jarayoni oldindan darsni loyihalashtirishi zarur, bu jarayonda pedagog o’quv predmetining o’ziga xos tomonini va sharoitini, eng asosiysi, o’quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o’qituvchi o’quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak. Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati dars jarayonida o’quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo’llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma’suliyatni sezish. ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o’qishga, fanga, pedagogika va o’zi tanlagan kasbiga bo’lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

**XULOSA**

Umumiy tarzda xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o’quv jarayonida loyixalash va pedagogik texnologiyalarini qo’llashni taqazo etadi. Ular juda xilma – xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta’lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Ta’kidlash lozim-ki, yuqorida keltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va loyixalash, o’qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o’quvchilarda aqliy, ijodiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga, yetuk mutaxassis bo’lishlariga hamda mutaxassisiga kerakli bo’lgan kasbiy fazilatlarini oshirishga keng yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O’zbekiston 2017 yil, - 489b.
2. Azizzo’jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent:, O’qituvchi»,, 2006 yil.
- 3.Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari»Toshkent., «Moliya» , TDPU., 2008 yil.